

*Nizomova Mehrangiz Jamoliddinzoda*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*

*Tel : +998888101608*

**Annotation :** This article basically explains the types and essence of money. Special attention will be paid to electronic money, which is now a "fashion".

**Key words :** Money, the nature of money, forms of value, plastic cards, functions of money, electronic money, electronic payments.

**Аннотация :** В этой статье в основном объясняются виды и сущность денег. Особое внимание будет уделено электронным деньгам, ставшим уже «традицией».

**Ключевые слова :** Деньги, природа денег, формы стоимости, пластиковые карты, функции денег, электронные деньги, электронные платежи.

**Annotatsiya :** Ushbu maqola asosan, pullarning turlari va mohiyatini qisqacha tushuntiradi. Hozirda “urf”ga kirgan elektron pullarga alohida to’xtalib o’tadi.

**Kalit so’zlar :** Pul,pulning mohiyati,qiyomat shakllari,plastik kartalar,pulning funksiyalari, elektron pullar,elektron to’lovlar.

Pulning paydo bo’lishi insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biridir.” Pul” deb nomlangan umumiy ekvivalentning vujudga kelishi orqali insonlar o’rtasida bo’lib o’tadigan ziddiyatlar va qiyinchiliklarga chek qo’yildi. Pulning paydo bo’lishi , uning evolyutsion rivojlanishi,pul nazariyasi, mohiyati va funksiyalari haqida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, nazariyachilar, mutaxassislar juda ko‘p ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqot ishlari yaratgan va bu kabi tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom ettirilmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishi va uning hozirgi kundagi ko‘rinishi haqida yagona yondashuv mavjud emas.

Pulning paydo bo'lishiga sabab- bu qadimda odamlar o'rtasida ro'y bergan bir tomonlama va ikki tomonlama ayiraboshlash munosabatlari va uning rivoji hisoblanadi. Bu davr ishlab chiqarish usulining natural xo'jalik tuzumi davriga borib taqaladi. Shuningdek, natural xo'jalikning rivojlanib borishi, jamiyatda mehnat taqsimotini shakllanishiga olib kelgan. Vaqt o'tishi bilan odamlar o'rtasida mahsulot ayirboshlash jarayoni rivojlanib, ishlab chiqarishning ixtisoslashuv jarayoni ro'y bera boshlagan. Xususan, pulning vujudga kelishida chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi, keyinchalik hunarmandchilikning shakllanishi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu davrda, odamlar o'rtasida mahsulotlarni faol ayirboshlash jarayoni boshlandi.

Turli davrlarda pul kurinishida har xil tovarlar ishlatilishiga qaramasdan, pul doimo insonlar va iqtisodiyot uchun muhim hisoblangan.

*Pulning mohiyati (1)*

Iqtisodchilar pul (yoki pul massasi) ni cheksiz ravishda tovar va xizmatlarni ayirboshlashda, shuningdek qarz majburiyatlarini so'ndirishda qo'llaniladigan umumqabul qilingan to'lov vositasi sifatida belgilashadi. Ko'plab odamlar pul haqida gapirishganda, naqd pullarni nazarda tutishadi (qog'oz pullar va tangalar). Biroq , iqtisodchilar pulning mohiyatini faqatgina nad pullar bilan chekhanishini juda ham tor deb xisoblashadi. CHeklar xarid uchun to'lov vositasi sifatida ishlatilganligi bois, chek depozitlari ham pul o'rnida ko'rildi. Ammo pulning mohiyatini yanada kengroq aniqlash zarur: xattoki amaliyotda jamg'arma depozitlar naqd pullar va chek depozitlarga tezda aylanganligi bois pulning o'rnida ishlatilishi mumkin. SHunday qilib, iqtisodiyotda pul yoki pul massasining umumiyligi va "aniq" tushunchasi mavjud emas.

*Pulning mohiyati quyidagicha ifodalananadi* : pul barcha tovarlar qiymatini o'zida aks ettiruvchi umumiy ekvivalentdir.

*Qiymat shakllarining evolutsiyasi*

Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishini yoritishda asosiy e'tibor, uning qiymat shaklining rivojlanish evolutsiyasiga qaratiladi.

Chunki, pulning vujudga kelishida uning qiymat shakllari juda muhim o‘rin tutadi. Pulning qiymat shakllari, asosan, beshta ko‘rinishdan iboratligi e’tirof etiladi, ular quyidagilar :

Qiymatning oddiy shakli, qiymatning kengaytirilgan shakli, qiymatning umumiy shakli, qiymatning pul shakli va qiymatning qog’oz pul shakli.

Umuman olganda, pulni rivojlanish tarixiga qarab natural pullar, qog’oz pullar va elektron pullar kabi turlarga bo’lish mumkin.

*Dastlabki (natural) pullarnig turlari*

Agar biz davlat va jamiyat aloqalari taraqqiyotining dastlabki rivojlanish davriga e’tibor beradigan bo’lsak, o’sha davrlarda turli ko‘rinishdagi tabiiy tovar pullar mavjud bo’lgan :

1. Chig’anoqlar (Polynesia va Hindiston)
2. Turli xil hayvon terisi (qadimgi Rossiya)
3. Tabiiy tuz (Efiopiya)
4. Temir ketmonlar (Sudan)
5. Chig’anoqdan bo’lgan marjon (Janubiy Amerika hududlari )
6. Mis va bronza ( Qadimgi Rim )

*Zamonaviy pullarning turlari :*

1. Naqd pullar
2. Naqdsiz pullar (elektron pullar)

Banklarning rivojlanishi, o‘zaro to‘lovlar va hisob – kitoblar hajmining ortishi, shuningdek, texnika va texnologiyaning takomillashuvi natijasida XX asrning ikkinchi yarmidan to‘lov instrumenti plastik kartochlar bo’lgan elektron pullar vujudga keldi.

*Plastik karta* – bu pullarni naqdsiz ko‘rinishda ko‘chirish yoki naqd pul ko‘rinishda olish imkoniyatini beradigan, banklar va boshqa kredit muassasalari tomonidan chiqarilgan nomli to‘lov hujjatidir.

Plastik kartalarining bank tizimi va undan foydalanuvchilar uchun qulaylik jihatlari juda ko‘p. Xususan :

– kishi 1, 2, 3 mln so‘mni hamyonida olib yurolmaydi, lekin plastik kartada bunday muammo mavjud emas;

– hamyoningizdagi pulni yo‘qotsangiz yoki unutib biror joyda qoldirsangiz ulardan begona shaxs foydalanishi mumkin, lekin plastik kartalardan begona shaxslarni foydalanish imkoniyati juda chegaralangan. Chunki ularning maxsus paroli mavjud, shu bilan birga, plastik kartani yo‘qotgan shaxs zudlik bilan bankka xabar bersa uning hisobraqamlari bo‘yicha to‘lovlarni to‘xtatib qo‘yish mumkin;

– banklar naqd pullarni tashish, saqlash, ularning hisobini yuritish va mijozlarga berish kabi qo‘shimcha mehnat va sarf xarajatdan forig‘ bo‘ladi;

– banklar depozit siyosatidan kelib chiqib foydalanuvchi plastik kartadagi vaqtinchalik foydalanmay turgan qoldiq summalariga qo‘shimcha foiz to‘lashi mumkin

Hozirgi kunda barcha tijorat banklari o‘z plastik kartochkalariga ega bo‘lib, ularning soni yildan – yilga ortib bormoqda.

O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan joriy etilgan plastik kartalar bilan hisob – kitoblar samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagicha choratadbirlar amalga oshirilmoqda:

– savdo nuqtalarida plastik kartalar bilan hisob – kitoblarni amalga oshirish uchun terminallarni ko‘paytirish;

– ish haqi va unga tenglashtirilgan mablag‘larni plastik kartalarga o‘tkazish jarayonini yanada takomillashirish;

– barcha bank bo‘limlari boshqa banklarning plastik kartochkalari bo‘yicha ham naqd pullarni yechishlishini ta’minlash .

Yuqorida qayd etilgan holatlar bo‘yicha Markaziy bank va tijorat banklari, tegishli muassasalar, shuningdek, savdo nuqtalari tomonidan amlaga oshirilayotgan ishlar plastik kartalarni yanada kengroq va samarali ishlashiga imkoniyat yaratadi.

### *Pulning mohiyati (2)*

Pulning mohiyati va o’ziga xos xususiyatlari haqida ham bir qancha iqtisodchi olimlar turli xil,bir- biriga qarama qarshi g’oyalarni ilgari surishgan.Bunday fikrlarni eramizdan oldingi davrda yashagan Aristotel (er.oldingi 384 – 322 yy.), keyinchalik

sarkarda Aleksandr Makedonskiy kabi buyuk shaxslar tomonidan qoldirgan manbalarda , A.Smit,D.Yum ,rosiyalik iqtisodchi olimlardan B.I.Sokolov, O'zbekistonlik iqtisodchi olima Sh.Z.Abdullayeva,O.Yu.Rashidov larning asarlarida uchratishimiz mumkin.Shunga ko'ra,pulning mohiyatini yanada aniqroq tushunish uchun uning turlari va funksiyalari haqida bilib olishimiz kerak.

Pul juda uzoq tarixiy davrni (Yer yuzida puldan ayriboshlash vositasi sifatida foydalanib kelinayotganiga yetti ming yildan ortiq vaqt bo'lgan ) boshidan kechirib, hozirgi kundagi ko'rinishi, holati va darajasiga yetgan. Bu davr ichida dastlabki pullar tovar, buyum, oddiy metall va qimmatbaho metallar ko'rinishidan hozirgi kunda keng foydalanib kelinayotgan qog'oz va elektron pullar ko'rinishigacha aylangan.

Iqtisodiy adabiyotlarda pulning funksiyalari xususida Amerikacha va Yevropacha qarashlar mavjud.

1.Yevropa maktabi pulning 5 funksiyasi mavjud degan xulosaga kelgan:

\*Qiymat o'lchovi funksiyasi .Barcha tovarlar va xizmatlar umumiyligi ekvivalent bo'lgan pulda o'lchanadi.

\* Muomala vositasi funksiyasi.Bunda Tovar-pul yoki pul-tovar operatsiyasi bir vaqtning o'zida amalga oshadi,ya'ni tovarlar nasiyaga berilmaydi.

\* To'lov vositasi funksiyasi.bunda tovarlar muddati kechiktirilib sotiladi va kredit, moliya munosabatlaridagi to'lovlar ham pulning to'lov vositasi funksiyasiga kiradi.

\* Jamg'arish vositasi funksiyasi.Bunda naqd va naqd bo'limgan pullar jamg'ariladi.Aholi,korxonalar o'zlarining bo'sh pul mablag'larini banklarga muddatli yoki jamg'arma deposit hisob raqamlarida saqlaydilar.

\* Juhon puli funksiyasi.Bu funksiyani jahon bozorida kotirovka qiladigan ,ya'ni oldi-sotdi qilinadigan pullar bajaradi.Xalqaro hisob-kitob banki ma'lumotlariga ko'ra ,xalqaro valyuta bozorlarida konversion operatsiyalarning 90% dan ortiq qismi 6ta valyutada ( USD – AQSh dollari,EUR – yevro , JPY – Yaponiya iyenasi , GBP – Buyuk Britaniya funt-sterlingi,ChF – Shvetsariya franki,ChY – Xitoy yuani ) amalga oshirilmoqda ([www.bis.org](http://www.bis.org)). Bu valyutalar

xalqaro rezerv valyutasi deb nomlanib ,ularga bu maqomni Xalqaro Valyuta Fondi beradi. Masalan, O'zbekiston so'mi bu vazifani bajarmaydi.

Amerika ilmiy maktabi esa,pulning 3ta funksiyasini tan oladi :

- Hisob funksiyasi
- Ayiraboshlash funksiyasi
- Jamg'arish vositasi funksiyasi

O'zbekistonlik iqtisodchi, professor Sh.Z.Abdullaeva pul to'rtta funksiyani bajarishini (qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi va jamg'arma vositasi funksiyalari) ta'kidlaydi .

Pul haqida gapirar ekanmiz-XXI kompyuter-texnologiyalar asrida – yangi elektron pullar,elektron to'lov tizimlari haqida gapirmsandan ilojo yo'q.Biz yuqorida elektron pullar haqida gapirib o'tgan edik.Elektron pullarning paydo bo'lishi va qo'llanilishi natijasida esa,elektron to'lov tizimlarini banklar turli yangi texnologiyalarni qo'llashi natijasida rivojlanmoqda.Masalan , Mobile Banking, Internet Banking, SIM Application-tooklit, RFID Technology,IVR ,WAP,USSD,Mobile Money va shu kabilardir.

Arzon kompyuterlarning yaratilishi va Internet ni keng tarqalishi elektron to'lovlarni tatbiq etishga shart-sharoit yaratdi. Qadimda cheklarni pochta orqali yuborish orqali to'lashingiz shart edi. Ammo hozirgi kunda siz banklarning Web saytiga (yoki Mobil ilovalariga) kirib, bir nechta klavishlarni bosish orqali to'lojni elektron ko'rinishda yuborishingiz mumkin. Siz nafaqat pochta xarajatlarini kamaytirasiz, balki kam harakat talab qilganligi bois hisobni to'lash deyarli sevimli mashg'ulot hisoblanadi. Banklar tomonidan ta'minlangan elektron to'lov tizimi hisobni to'lash uchun tarmoqqa ularish zaruriyatidan qutqarib, takrorlanadigan to'lovlardan avtomat ravishda sizning hisobraqamingizdan yechib olinadi. Baholanishicha to'lovniga chekda amalga oshirilishiga nisbatan elektron ko'rinishda o'tkazilishi 1 dollardan ortiq tranzaksion xarajatni keltirib chiqaradi. SHuning uchun AQSHda elektron to'lovlardan kengroq qo'llanilmoqda.

Elektron to‘lovlar texnologiyasi faqatgina elektron shaklda mavjud bo‘lgan pul – elektron ko‘rinishdagi pullar (yoki e-money) nafaqat cheklarni balki naqd pullarning o‘rmini bosdi. Elektron pullarning birinchi ko‘rinishi debet plastik kartochkasi edi.Ko‘plab banklar va Visa hamda Master Card kabi kompaniyalar debet kartochkalarni chiqarishadi. Bankomat uchun kartochka ham debet kartochka sifatida ishlaydi. Elektron pullarning ancha takomillashgan shakli – xotirali kartochka hisoblanadi. Bunday kartochkalarning soddarоq varianti telefon ko‘rinishida bo‘lib, oldindan pul to‘lash orqali sotib olinadi va ist’emolchi tomonidan ma’lum bir xaridlarni amalga oshirish imkoniyati bo‘ladi. Xotirali ancha murakkab kartochka smart karta xisoblanadi. Kartochka mikroprotsessori bank xisobvarag‘idan elektron pullarni echib olish orqali smart kartani elektron pullar bilan to‘ldiradi. Smart kartalar bilan telefon apparatlari va personal kompyuterlar bilan maxsus jihozlangan bankomatlar ishlaydi.

Elektron pullarning uchinchi shakli tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun foydalaniladigan elektron naqd pullar hisoblanadi.Elektron pullarning qulayligini hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, barcha to‘lovlar elektron ko‘rinishda amalga oshiriladigan naqd pulsiz jamiyatga tezkorlik bilan o‘tish imkoniyatiga egamiz. Ammo bu hodisa sodir bo‘lmasligining asosiy sabablaridan biri – bu elektron pullarga o‘tish ishonchlilik va xavfsizlik masalasida bir qator savollarni o‘rtaga tashlaydi. Biz tez-tez qandaydir xaker ma’lumotlar bazasini ochganligi va mavjud ma’lumotlarga o‘zgartirish kiritganligi to‘g‘risida eshitib qolamiz. Ko‘p uchrab turadigan xolatlaridan biri jinoyatchilar elektron to‘lov tizimidagi bank xisobraqamlarini ochishib, birovning xisobvarag‘idagi pullarni o‘g‘irlash orqali o‘zining xisobraqamiga o‘tkazib yuboradi. Bunday turdagи firibgarliklarni oldini olish maqsadida qilingan xarakatlar informatsion texnologiyalar xavfsizligi sohasida yangi tadqiqotlarni rivojlantirishga turtki bo‘lmoqda. Bu masalada xavotirning kuchayishiga yana bir sabab shu bilan izohlanadiki, elektron mablag‘lardan to‘lov sifatida foydalanish sotib oluvchilarning ehtiyojlarini to‘g‘risida “elektron iz” larni qoldirilishiga sabab bo‘ladi. Hukumat, ish beruvchilar va savdogarlar ushbu

ma'lumotlardan foydalanishi orqali fuqarolarning shaxsiy hayotiga daxl qilishlari mumkin bo'ladi.

**Xulosa :** Yuqoridagi sabablar to'liq elektron to'lov tizimlariga o'tishimizga halal berayotgan bo'lsada, raqamli texnologiyalarning takomillashib borishi natijasida mutloq naqdsiz pullarga o'tishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar to'plami :**

- 1.O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrdagi 154-I-soni  
“O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun
- 2.O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent:O'zbekiston, 2011.
2. Abdullaeva .Sh.Z.Pul ,kredit va banklar- T: Iqtisod-Moliya,2007.
3. Omonov A.A., Qoraliev T.M. Pul, kredit va banklar. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2012.
- 4.Bobakulov T.I, Abdullaev U.A. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. – Toshkent: Sano-standart, 2014.
5. Abdullaeva.Sh.Z. Bank ishi.Darslik – Toshkent:Iqtisod-Moliya,2017.
- 6.Melikov.O.M.Raqamli bank texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda ulardan samarali foydalanish yo'llari.Maqola- “Iqtisodiyot va ilmiy texnologiyalar”ilmiy jurnali,2021.
- 7.Frederic S.Mishkin.The economics of money,banking and financial markets.Peaeson Education Limited.pp.2013.
- 8.[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O'zR MBning rasmiy veb-sayti;
- 9.[www.bis.org](http://www.bis.org) – Xalqaro hisob-kitoblar banki rasmiy veb-sayti.